

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

### №4 (2)

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL .....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI .....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	50
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI .....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH .....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI .....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI .....	84
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	89
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL .....	94
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI .....	100
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN .....	105
<b>Maxmudov Rahimjon</b>	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH .....	109
<b>Abduraxmonova Gulmira</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	114
<b>Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li</b>	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
<b>Tuychieva Odina Nabiyeвна</b>	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI .....	144
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanoyna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	149
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI .....	156
<b>Odinayev Ravzatullo Asatulloevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
<b>Karimov Alibek Valievich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....	167
<b>Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li</b>	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARNINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLISH ISTIQBOLLARI .....	173
<b>Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux</b>	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI .....	179
<b>Marqayev Xurshid Aliqulovich</b>	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
<b>Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	188
<b>Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi</b>	



# XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

**Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi**

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Email: [guli19.95@icloud.com](mailto:guli19.95@icloud.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xizmatlar sohasini boshqarishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari Andijon viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida agroturizm va xizmatlar sohasining rivojlanish holati statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Tahlil natijasida xizmat sifati pastligi va raqamli xizmatlarning yetarli emasligi kabi muammolar aniqlandi. Shu asosda sohani takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar sohasi, agroturizm, xizmatlarni boshqarish, raqamli xizmatlar, xizmat sifati, infratuzilma, hududiy rivojlanish, Andijon viloyati.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы проблемы управления сферой услуг и пути их решения на примере Андижанской области. В процессе исследования на основе статистических данных была оценена текущая ситуация развития агротуризма и сферы услуг. В результате анализа выявлены такие проблемы, как низкое качество обслуживания и недостаточное развитие цифровых услуг. На этой основе разработаны практические рекомендации по совершенствованию отрасли.

**Ключевые слова:** сфера услуг, агротуризм, управление услугами, цифровые услуги, качество обслуживания, инфраструктура, региональное развитие, Андижанская область.

**Abstract:** This article analyzes the problems of service sector management and ways to solve them based on the case of Andijan region. The study evaluates the current state of agrotourism and service sector development using statistical data. The analysis identifies key issues such as low service quality and insufficient development of digital services. Based on the findings, practical recommendations for improving the sector are proposed.

**Keywords:** service sector, agrotourism, service management, digital services, service quality, infrastructure, regional development, Andijan region.

## KIRISH

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Ushbu sohaning kengayishi aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish va uni samarali boshqarish masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son<sup>1</sup> Farmonida iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, xizmatlar sohasini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamli xizmatlarni kengaytirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiya xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim huquqiy va institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan xizmatlar sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada xizmatlar sohasini boshqarishdagi mavjud muammolar Andijon viloyati misolida o'rganilib, agroturizm va raqamli xizmatlar asosida ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasini boshqarish va uni rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, zamonaviy yondashuvlarda mijozga yo'naltirilganlik va xizmat sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlash, avvalo, xizmat ko'rsatish jarayonini takomillashtirish va mijoz qoniqishini oshirish bilan bevosita bog'liq (Kotler P., Keller K., 2016).

Xizmat sifati va uni baholash masalalari alohida o'rin tutadi. Bu borada SERVQUAL modeli keng qo'llanilib, u xizmat ko'rsatishda ishonchlik, tezkorlik, ishonch uyg'otish va individual yondashuv kabi omillarni baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv xizmatlar sohasidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim nazariy asos hisoblanadi (Zeytxaml, Bitner va Gremler, 2018).

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini transformatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, raqamli xizmatlar tushunchasi va ularning xususiyatlari tahlil qilingan tadqiqotlarda ularning interaktivligi, avtomatlashtirilganligi va yuqori samaradorligi asosiy jihatlar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirish, xizmat ko'rsatish tezligini kuchaytirish va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi (Mexmud, Sidra, 2025).

Agroturizm esa xizmatlar sohasining muhim tarkibiy qismi sifatida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarda agroturizm qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishning samarali vositasi sifatida baholanadi hamda agroturizm turizm va qishloq xo'jaligi faoliyatining integratsiyalashgan shakli bo'lib, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va hududiy rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi (Viktorovna, 2014).

Zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqqan holda, agroturizm xizmatlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Onlayn platformalar, elektron bronlash tizimlari va raqamli marketing instrumentlari orqali agroturizm xizmatlarining ommaviyligini oshirish va bozorda raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasini samarali boshqarishda xizmat sifati, raqamli texnologiyalar va agroturizm imkoniyatlarini kompleks tarzda rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bu esa mazkur tadqiqotda ko'tarilgan muammolarni hal etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Andijon viloyatida agroturizm loyihalarining rivojlanish holati tahlil qilindi. Tadqiqotda statistik, taqqoslash va grafik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, sohaning kuchli va zaif tomonlarini baholash maqsadida SWOT tahlil qo'llanildi.

Ma'lumotlar Andstat.uz manbalari asosida o'rganilib, ular asosida xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.


### Tahlil va natijalar

Mazkur tadqiqotda Andijon viloyatida agroturizm loyihalarining hududlar bo'yicha taqsimoti asosida xizmatlar sohasining rivojlanish holati o'rganildi. Tahlil jarayonida agroturizm loyihalarining joylashuvi, ularning hududiy farqlari hamda sohaning amaldagi holatiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tarzda baholandi.

Tahlil uchun olingan ma'lumotlar agroturizm loyihalarining tumanlar kesimidagi taqsimoti bir xil emasligini ko'rsatdi. Ayrim hududlarda loyihalar soni nisbatan yuqori bo'lib, bu yerlarda agroturizmni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar shakllanganligini anglatadi.

Hududlar o'rtasidagi farqlar infratuzilma rivoji, investitsiya imkoniyatlari va xizmat sifati darajasi bilan izohlanadi. Shu bois, agroturizmni rivojlantirishda raqamli xizmatlarni joriy etish, xizmatlar turlarini kengaytirish va investitsiya muhitini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Agroturizm loyihalarining hududlar bo'yicha taqsimoti quyidagi 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).





1-rasm. Andijon viloyatida agroturizm loyihalari soni (tumanlar kesimida)<sup>2</sup>

Agroturizm loyihalari Andijon viloyati hududlari bo'yicha nomutanosib taqsimlangan. Xususan, Qo'rg'ontepa (122 ta) va Asaka (50 ta) tumanlarida ko'rsatkichlar yuqori bo'lib, bu hududlarda agroturizm rivojlanishi uchun sharoitlar nisbatan yaxshi shakllangan.

Boshqa tumanlarda esa loyihalar soni past bo'lib, bu mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganligini ko'rsatadi. Ushbu holat infratuzilma, investitsiya va xizmat sifatidagi farqlar, shuningdek, raqamli xizmatlarning yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Shu bois, agroturizmni rivojlantirishda raqamli xizmatlarni joriy etish va kam rivojlangan hududlarda infratuzilmani kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Agroturizm xizmatlarini rivojlantirish holatini kompleks baholash maqsadida sohaning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, imkoniyatlar va xavf-xatarlar tahlil qilindi. Yuqoridagi tahlil natijalarini chuqurroq baholash maqsadida agroturizm sohasining SWOT tahlili amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

Agroturizm sohasining SWOT tahlili (Andijon viloyati misolida)<sup>3</sup>

KUCHLI TOMONLAR (STRENGTHS):
<ul style="list-style-type: none"> <li>• hududning qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarga boyligi;</li> <li>• ayrim tumanlarda agroturizm loyihalarining shakllanganligi (masalan, Qo'rg'ontepa va Asaka tumanlari);</li> <li>• qishloq turizmiga bo'lgan ichki talabning ortib borayotgani;</li> <li>• mahalliy aholining tadbirkorlik faolligi mavjudligi.</li> </ul>
ZAIF TOMONLAR (WEAKNESSES):
<ul style="list-style-type: none"> <li>• hududlar o'rtasida agroturizm rivojlanish darajasida muayyan tafovutlarning mavjudligi;</li> <li>• infratuzilmaning ayrim hududlarda yanada takomillashtirishni talab etishi;</li> <li>• xizmat ko'rsatish sifati darajasining barcha hududlarda bir xil darajada shakllanmaganligi;</li> <li>• raqamli xizmatlar (onlayn bronlash, marketing)ni joriy etish jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani;</li> <li>• investitsiya resurslariga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurati.</li> </ul>
IMKONIYATLAR (OPPORTUNITIES):
<ul style="list-style-type: none"> <li>• raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish;</li> <li>• agroturizmni ichki va tashqi turizm bilan integratsiya qilish;</li> <li>• davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati;</li> <li>• yangi xizmat turlarini (ekoturizm, fermerlik tajribasi) joriy etish.</li> </ul>
XAVF-XATARLAR (THREATS):
<ul style="list-style-type: none"> <li>• investitsiyalarning yetarli darajada jalb etilmasligi;</li> <li>• boshqa hududlar bilan raqobatning kuchayishi;</li> <li>• infratuzilma muammolarining saqlanib qolishi;</li> <li>• raqamli xizmatlarni joriy etishda texnik va kadrlar bilan bog'liq cheklovlar.</li> </ul>

Yuqoridagi SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, agroturizm sohasida mavjud imkoniyatlarga

2 Manba: Andstat.uz asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3 Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi.





qaramasdan, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator zaif tomonlar va xavf-xatarlar mavjud. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish orqali agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari Andijon viloyatida agroturizm loyihalarining hududlar kesimida nomutanosib taqsimlanganligini ko'rsatdi. Jadval va 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, ayrim tumanlarda (xususan, Qo'rg'ontepa va Asaka) agroturizm faol rivojlanayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda loyihalar soni past darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa mavjud tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganligini anglatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu nomutanosibliklar, avvalo, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, investitsiya imkoniyatlari, xizmat ko'rsatish sifati hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining turlicha ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, agroturizm xizmatlarida onlayn platformalar, elektron to'lovlar va raqamli marketingning yetarli darajada joriy etilmaganligi sohaning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda.

SWOT tahlil natijalari ham shuni ko'rsatdiki, mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, zaif tomonlar va xavf-xatarlar sohaning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, agroturizmni rivojlantirish xizmatlar sohasini takomillashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- agroturizm obyektlarini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish va onlayn bronlash tizimlarini joriy etish;

- xizmatlar turlarini kengaytirish (ekoturizm, fermerlik tajribasi, milliy madaniy xizmatlar);
- kam rivojlangan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish;
- agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish;
- xizmat ko'rsatish sifati oshirish va kadrlar malakasini rivojlantirish;
- raqamli marketing va axborot platformalari orqali agroturizm xizmatlarini keng targ'ib qilish.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish agroturizm xizmatlarini samarali rivojlantirish, hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish hamda xizmatlar sohasining umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. 2025.
2. Викторова, С. И. Агротуризм – новое направление в развитии сельских территорий. 2014.
3. Zeithaml, V. A., Bitner, M. J., Gremler, D. D. Services Marketing: Integrating Customer Focus across the Firm. 5th ed. Singapore: McGraw-Hill, 2009.
4. Котлер, П., Келлер, К. Л. Управление маркетингом. 15-е изд. Pearson Education, 2016.
5. Mexmud, V. Sh., Sidra, S. Digital Technology's Impact on Service Sector Productivity and Modernization. 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)